

XALQ DEPUTATLARI TERMIZ SHAHAR KENGASHINING 50-SESSIYASI O'TKAZILDI



XALQ DEPUTATLARI TERMIZ SHAHAR KENGASHINING 50-SESSIYASI O'TKAZILDI

Sessiyada xalq deputatlari Termiz shahar Kengashi deputatlari, sektor rahbarlari, kun tartibidagi masalalarga aloqador bo'lim va tashkilot rahbarlari qatnashdilar.

Sessiya kun tartibida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholi muammolari bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019 yil 17 yanvardagi PF-5633-sonli Farmonining shahardagi ijrosi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Termiz shahridagi Xalq qabulxonasi mudiri Saodatov Shuxrat Xodjakulovichning 2022 yil 1-yarim yillik axboroti, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrda "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni ijrosi yuzasidan Termiz shahar xalq ta'limi bo'limiga qarashli 9-sonli ayrim

fanlar chuqur o'rganiladigan ixtisoslashtirilgan maktab va 26-sonli umumta'lim maktab direktorlarining o'tgan o'quv yili mobaynida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 3 dekabrda PQ-31-son qarori asosida shahardagi xokim yordamchilari faoliyatining natijadorligi xamda aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha amalga oshirayotgan ishlari yuzasidan shahar mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi rahbari D.Normurodovning 2022 yil 1-yarim yilligida amalga oshirgan ishlari natijalari to'g'risida shuningdek, Termiz shahridagi "Ma'rifat" va "Alpomish" mahallalari profilaktika inspektorlari tomonidan hududlarda jinoyatchilik va huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida "Ma'rifat" va "Alpomish" mahallalari profilaktika inspektorlari J.Pirmatov, B.Sarievlarining hisobotlari tinglandi. Shuningdek, kun tartibdagi boshqa masalalar atroflicha muhokama etilib, shahar Kengashining tegishli qarorlari qabul qilindi. Shu bilan sessiya o'z ishini yakunladi.

Image not found or type unknown



Image not found or type unknown



Image not found or type unknown



Image not found or type unknown



Image not found or type unknown

